

## **OLIY TA'LIM O'QUV YURTLARIDA TALABARGA KOMPOZITSIYA ASOSLARINI O'RGAJISH, KOMPOZITSIYA ASARLARINI MUSTAQIL TUZISH VA YAKUNLASH BOSQICHLARI BILAN TANISHTIRISH**

*Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti Dastgohlik rangtasvir 4-bosqich talabasi  
Otamirzayeva Mohinur Ilxomjon qizi  
[mohinurotamirzayeva1630sun@gmail.com](mailto:mohinurotamirzayeva1630sun@gmail.com)*

**Anotatsiya:** Kompozitsiya asoslarini o'rganishdan maqsad, amaliy mashg'ulotlar jarayonida ijodkorlikka yo'naltirish va mustaqil tasviriy san'at ustida ishlashni shakllantirishdan iboratdir. San'atda mazmunan va g'oyaning eng yaxshi echimini umum ijodiy maxoratini oshirish, nafosat tarbiyasining muhim omillaridan biridir. Har qanday ijodkor o'tmishdagi rang tasvir san'at ustalari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir qonunlari va uslubiyatini ham o'rganadi.

Talabalarning dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy tasavvur va obrazli fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Keng badiiy estetik madaniyat va badiiy sezgini tarbiyalash, san'at asarini taxlil qilish malakasini oshirish, atrof- muhitdan olgan ta'surotlarini ijodiy tanlab olib, obrazli shaklda xaqqoniy tasvirlash.

**Kalit so'zlar:** Kompozitsiya, tasviriy san'at, rangtasvir, chizmatasvir, qonun, ritm, o'quvchilar, g'oya, klassik asar, yakuniy bosqich, eskiz.

**Kirish:** Respublikamiz o'z erkini qo'lga kiritgan yillardan boshlab barcha sohalarda, ayniqsa, ta'lim tizimini isloh qilish borasida juda katta ijobiy o'zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda.

"Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan eng katta ish haqida so'rasha, men hech ikkilanmasdan Kadrlar tayyorlash dasturini qabul qilganimiz va amalga oshirganimiz, deb javob bergen bo'lardim<sup>1</sup>" deydi Prezidentimiz Islom Karimov. Darhaqiqat, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda tarbiyaning boshqa turlari qatorida estetik tarbiyaning va uning tarkibidagi tasviriy san'at ta'limining ahamiyatiga ham katta e'tibor qaratilgan.

Ta'limning umumiyligi o'rta ta'lim bosqichida o'quvchilarga tasviriy san'at asoslarini o'rgatish tasviriy san'at o'qituvchilari zimmasiga tushadi. Bunda juda ko'p narsa umumiyligi o'rta ta'lim turi uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoni va uning mazmuniga

<sup>1</sup> Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир – Т: "Ўзбекистон", 2015. – 302 б.

bog‘liqdir. Olib borilgan kuzatish ishlari shuni ko‘rsatdiki, hozirda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilariga tasviriy san’at fanidan saboq berayotgan o‘qituvchilarining kasbiy bilimlari zamon talablari darajasida shakllanmagan.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek “Bugungi kunda katta umid, orzu-maqsadlar bilan, Vatanim taraqqiyotiga xissa qo‘saman, deb belini mahkam bog‘lab maydonga chiqayotgan, azmu shijoatli yoshlarimizni har tomonlama qo’llab quvvatlash barchamizning nafaqat vazifamiz, balki burchimizga aylanishi kerak”<sup>2</sup>.

Kompozitsiya va uning ijodiy faoliyatdagi ahamiyati beqiyos bu o‘z navbatida chizmatasvir va rangtasvir fanlari bilan nafakat uzviy bog‘lik balki ushbu fanlarni urganish mobaynida bevosita muntazam tarzda kompozitsiyaga murojaat etiladi. SHu bilan bir katorda perspektiva, ashylar texnologiyasi va plastik anatomiya fanlari xam bilimdon va maxoratlari kompozitsiya ustasi bo‘lishiga hissa qo‘sadi.Uz navbatida tasviriy san’at tarixi fani xam bulgusi rassom tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Kompozitsiya asoslari fani unga nazariy jihatlarini urganishga yordam beradi.

Kompozitsiya vazifalari ustida ishslash rahbar o‘qituvchining ma’ruzasi bilan boshlanadi va aniq mavzu tanlanadi. Kompozitsiya xarakteri tushuntiriladi. Kompozitsiya vazifasini bajarish davomida o‘qituvchi tomonidan mavzuni chuqur tushuntirishga doimiy konsultatsiya (maslahat) beriladi va sayohatlar uyushtiriladi. Kompozitsiya mavzusini tanlashda «Dastgohli rangtasvir» texnikasi: kompozitsiya mavzusini tanlash, kompozitsiya bo‘lajak asar syujetini oolib berish, asar g‘oyaviy mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi qoralamalarini ishlab chiqish; asar qahramonlarining mato yuzasidagi joylashuvi plastikasining rangda va tusdagi echimini topish; asarning yakuniy tasviriy va kompozitsion echimi eskizi, etyudlari va chizgilar turkumini yaratish; rangtasvir asarida dramatizm xususiyatlarni anglash; asar g‘oyasini loyihalash shakl usullari; klassik va zamonaviy asar kompozitsiya eskizi; chizmalar tayyorlash; bajarishdagi ashylar - karton, qog‘oz, mato, planshet, bo‘yoq turlari; murakkab eskiz shakllari va jihozlari; rang berish va quruq mo‘yqalamda ishslash, formatirovka texnik usullari; eskiz bajarishdagi ashylar. Bu talabalardan turmush voqealariga faol munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Kompozitsiya mazmunini oolib berish yangi, tipik realistik va boshqa vositalardan foydalanishni talab qiladi. Kompozitsiya mavzusi va xarakteri “Dastgohli rangtasvir” kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra majlisida tasdiqlanadi. Hamma vazifalar uncha katta bo‘lmagan hajmda chizmatasvirda va rangtasvirda bajariladi.

Kompozitsiya mukammalligining birinchi belgisi-kartina mazmuni bir qarashda uzoq masofadan o‘qilishi kerak. Aksincha esa, eng muhim kompozitsiya bezagi – kompozitsiya tomoshabinga tushunarli bo‘lishi asosi topilmaganligidadir.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир –Т: “Ўзбекистон”, 2015. – 302 б.

Eskiz – bu kartina loyihasi, kartina ustida ishlashning birinchi bosqichi. Eskizda xolst formati, tasvir o'lchamlari, ko'rish nuqtasi, gorizont chiziqg' balandligi aniqlanadi. Eskiz variantlarida ifoli, aniq echim, buyum va ob'ektlarni haqqoniy joylashtirish, qiyofalarni guruhlashtirish, g'oyaviy markazni aniqlash amalgalashiriladi. Kompozitsiyada ortiqcha shakl, qiyofa bo'lmasligi kerak. Har bir qiyofa umumiyligi g'oyada o'z vazifasini belgilashi va hamma holatlar mavzuni ochib berishga yordam berishi kerak.



### **Bir necha kompazitsiya eskizlari ustidan ishlash namunalari.**

Eskizni rangda ishlov berishda kartina tomoshabinga yaxshi ta'sir qilishi uchun mavzu, g'oyaga asosan kolorit yaratish kerak. Kartina koloriti tasvirlanayotgan holatning tusiga va rangiga, kun vaqtiga, ob-havo sharoitiga mos kelishi kerak. Eskiz rang qurilishi shunday tashkil qilinishi kerakki, u yoritilishi holatini, kompozitsiya markazini aniqlashga xizmat qilib kartinaning ta'sir kuchini to'ldirsin.



Aynan voqelik sodir bo'layotgan joydan nabroska, zarisovka va etyudlar qiladilar. Ushbu ijodiy izlanishlar orqali talaba o'z mavzusi bo'yicha birinchi eskizlar qiladi. Qilingan asarlardan ma'qulini tanlab, tasdiqlangan eskiz bo'yicha yana izlanishlar olib boriladi. Eskizdagi xajmlarni keltirib chiqadi, asar koloritini xal qiladi. Shu tariqa yana bir nechta eskizlar bo'ladi. Eskizlardan eng mukammali tanlanadi.

Kartinada hamma narsa asosiy fikrga va g'oyaga qaratilishi kerak. Kompozitsiya yaxlitligiga ikkinchi darajali narsalar birinchi darajali narsalarga bog'liq bo'lib, butun tasvirni yagona maqsadga ko'zga tashlanmasligi lozim. Asosiy qism ajratilib tasvirlanadi. Agar kartinadi narsalar bir xil ahamiyatli bo'lib pala-partish tartibda joylashtirilsa, kompozitsiya o'z ifodaliligini, ahamiyatini yo'qotadi.

Asosiy natura tasvirini kartinada yaxshiroq joyda diqqat bilan tasvirlash muhim.

Asosiy harakat, voqealari kartina tekisligining markaziga yaqinroq joylashtiriladi. Bu tomoshabinga kartinani ko'rishda uning ma'nosini uzoqdan to'la qamrab olishga imkon beradi. Kompozitsiyada bir necha bir xil ahamiyatga ega markaz kompozitsiya yaxlitligini va birligini buzadi. U tomoshabin idrok qilishiga imkon bermaydi.

Kompozitsiya markazini ajratib ko'rsatishda kartinani tabiiy idrok qilishda nurosoya, qiyofalar kattaligi, ranglar nisbati va qiyofalar oralig'i masofasi orqali amalga oshiriladi. Rassom kartinaning muhim qismini rang bilan, tus bilan va detallarga ishlov berish yo'li bilan amalga oshirish mumkin.



### **Kompozitsiyani markazilashtirilgan namuna.**

Rangli tasvirni savodli ifoda etish uchun naturani qo'yilmada nafaqat tusli, balki buyumlarning rangli farqlarini kuzatish vaqtida qanday qabul qilinsa, tasvirlash jarayonida ham shunga erishish lozim.

Rangli munosabatlarning holati buyumlar bilan atrof-muhitning bir-biriga bog'liqligini aks ettiradi, shuning uchun tasvirlanayotgan buyumlarning tusli va rangli munosabatlarining birligi, maromiga etgan, koloritli echimga kelishga imkon yaratadi.

Ish jarayonida shuni doimo yodda tutish keraki, xar bir rang yorug'likda, soyada, yarim soyada faqat o'zi emas, balki boshqa ranglarga bog'liqligi bilan muximdir. Muximi, uning umumiylar qatorida ishtirok etib, boshqalardan ajralib turishdir. Rassomni faqat ranglar farqi va munosabatlar qiziqtirishi zarur. SHuning uchun rangtasvir jarayoni – bu naturali qo'yilmadagi buyumlarning doimiy solishtiruv, taqqoslash, ya'ni munosabatlar bilan ishslash jarayoni xisoblanadi.

Ranglar munosabati usulidagi rangtasvir tjarayonini musiqa oxanglariga qiyoslash mumkin, ya'ni aloxida tovushlar o'z o'zidan xech narsani aks ettirmaydi, ammo boshqa oxanglar bilan mujassamlashganda zarur taassurotni beradi. Tovushlarning bir-biriga bog'liqligi buzilsa, oxang mavjudligi yo'qoladi. Xuddi shu xolatni rangtasvirda xam taqqoslash mumkin. Tusli va rangli munosabatlarni kuchli yoki kuchsiz yorug'lik va to'yingan ranglar yig'indisida qurish mumkin, lekin shu

bilan birga jismlarni tusi va rang kuchining naturadan obrazli ko‘rinishda mos ravishda bir biriga bog‘liqligini saqlab qolish muximdir.

**Xulosa.** Kompozitsiyada muhim qahramonni ajratib tasvirlashda uni markazda joylashtirishdan tashqari bo‘yoq qo‘yish usuli bilan ham amalga oshirish mumkin. Ikkinchchi darajali qiyofalar yoki ikkinchi plan shakllarini ishlashda umumlashtiriladi.

Rassom borliqni tasvirlar ekan, tabiatning o‘ziga xos muhim tomonlarini, qiziqarli holatlarini belgilashi, unga nisbatan munosabatini bildirishi zarur. Haqiqiy tekisligiga buyumlarni joylashtirishda hamma tasvirlanayotgan qismlarini bir fikrga bog‘laydi.

Agar kompozitsiya vositalari asar g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lsa tasvir badiiylik jihatdan puxta bo‘ladi. Sujet, qahramonlarning psixologik xarakteristikasi, kolorit – hammasi o‘zaro bog‘liq bo‘lishi g‘oyaviy fikrga xizmat qiladi. G‘oyasiz va mohir kompozitsiya ustasi bo‘lmay turib puxta badiiy obraz yaratib bo‘lmaydi.

Yuqorida keltirilgan bir nechta elementlar, ayniqsa kontrasti kuchli bo‘lsa e’tiborimizni tortadi, lekin ko‘zni oladi. Rangtasvida bu elementlar juda foydalidir.

Bu rassomning mahorati xisoblanadi. Misol uchun dastlabki e’tibor yuziga qaratilganda, ko‘z markazi ko‘rinadi. Bu eng kuchli xolatlardan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Шарипжонов, М., & Икромова, М. Д. (2018). TASVIRIY SAN’ATDA ANIMALIZM JANRI. *Научное знание современности*, (5), 94-96.
2. oglu Sharipjonov, M. S. OLIY PYEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.
3. oglu Sharipjonov, M. S. OLIY PYEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.
4. Baxtiyor, M. U. (2023). A New Approach to Teaching Students Modern Styles and Forms of Majestic Painting Composition. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(12), 69-75.
5. Temirova, M. (2023). THE ABILITY OF THE TEACHER TO APPLY THE TECHNOLOGIES OF INDIVIDUAL WORK WHEN TEACHING STUDENTS THE LESSONS OF SKILLFUL PAINTING. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3), 177-181.
6. Темирова, М. И. (2022). ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО И ЕГО СОДЕРЖАТЕЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1(2).
7. Temirova Muqaddas, & Turg'unboyeva Maftunaxon. (2023). TASVIRIY SAN'AT FANLARINI MAKtablarda O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10337479>
8. Temirova Muqaddas, & Nazarov Murodjon. (2023). MAHOBATLI RANGTASVIR KOMPOZITSIYASINING ZAMONAVIY USLUBLARI,

SHAKLLARINI TALABALARIGA O'QITISHDA YANGICHA YONDASHUV.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10322777>

9. Tyemirova, M. I. Q. (2020). OLIY PYEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARING NATYURMORT KOMPOZISIYASINI TUZISH VA TASVIRLASH KASBIY MAHORATLARINI TAKOMILLASHTIRISH TYEXNOLOGIYALARI. *Science and Education*, 1(7), 582-586.
10. Temirova, M. (2024). TASVIRIY SAN'AT ASARLARIDAN (CHIZMATASVIR YOKI RANGTASVIR) NUSXA KO 'CHIRISH. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(2 Part 2), 30-34.